

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## **BOLALARDAGI TEMIR TANQISLIGI ANEMIYASI SABABLARI UNING ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI**

Jamolova Nasiba Norpo‘latovna

Pastdarg‘om Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi  
texnikumi Hamshiralik ishi fani o‘qituvchisi

Sharipova Luiza To‘xtayevna

Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi  
texnikumi Fizioterapiya va massaj fani o‘qituvchilari

Abdurazzoqova Muxayyo Xasan qizi

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada hozirgi kunda ko‘p uchrayotgan bolalardagi temir tanqisligi anemiyasi sabablari, uning zamonaviy davolash usullari haqida yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Temir tanqisligi anemiyasi, kamqonlik, foydali mahsulotlar, pediater, bolalar, vitamin B12, temir moddasi.

### **CAUSES OF IRON DEFICIENCY ANEMIA IN CHILDREN AND ITS MODERN TREATMENT METHODS**

**Anatation:** this article describes the causes of iron deficiency anemia in children, which is common nowadays, and its modern treatment methods.

**Key words:** Iron deficiency anemia, anemia, useful products, pediatrician, children, vitamin B12, iron.

Temir tanqisligi anemiyasi nafaqat yurtimizda, balki, butun dunyoda keng tarqalgan kasalliklardan hisoblanadi. Jahon Sog‘liqni Saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirgi paytda dunyoda ikki milliardga yaqin kishi ushbu xastalikdan aziyat chekar ekan. Ayniqsa bunda temir tanqisligi kamqonligi alohida o‘rin tutib, ko‘proq tug‘ish yoshidagi xotin qizlar, homiladorlar va bolalar orasida uchraydi.

Kamqonlik tanadagi qonning hajm birligida uning tarkibidagi eritrositlarda gemoglobinlar miqdorining kamayishi bilan kechadigan jarayon. Eritrositlardagi gemoglobin o‘pkada kislorod almashinuvini ta‘minlaydi. Gemoglobinning asosini temir moddasi tashkil etadi. Shu bois, inson organizmi uchun temir moddasi muhim



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

sanaladi. Bolalardagi kamqonlik 80-90 foizi temir moddasi yetishmasligi sabab paydo bo'ladi. Qolgan 10 foizi esa nasliy kamqonlik yoki boshqa kasalliklar asoratida yuzaga keladi [1]

Temir tanqisligi anemiyasi bolalik davrida kamqonlikning eng ko'p ko'rinishidan biri hisoblanadi. Bola hayotining ikkinchi yilida va o'smirlik davrida, erta yoshdagi bolalarda juda ko'p kuzatiladi. Yashirin temir tanqisligi davri temir yetishmovchilik kamqonligidan 1,5-2 marta ko'p uchraydi. Organizmning muhim mikroelementlaridan biri hisoblanmish temir moddasi qon ishlab chiqarishda asosiy ro'l o'ynaydi. Agar u taqchil bo'lsa, kamqonlik avj ola boshlaydi. Bu degani organizmda qon yetarli bo'lmasligi uning quruqlashishi ya'ni kislorod yetishmasligiga olib keladi. Eng ko'p kislorod talab etadigan a'zo bu bosh miyadir. Shu bois kamqon odamning, birinchi navbatda, intellektual salohiyati va bilim olishga ishtiyoqi pasayadi.

Kamqonlikning turlari uning kelib chiqish sabablari juda ko'p. Masalan, vitamin B12 yetishmovchiligi bilan bog'liq kamqonlik, A vitamini, rux, kobalt yetishmovchiligi bilan bog'liq kamqonlik; oqsil yetishmovchiligidagi kamqonlik turlari bor. Kamqonlikning boshqa xastaliklar asoratida yuzaga keladigan turlari esa quyidagilardir: jigar, buyrak, suyak ko'migining kasalligi asorati [2].

Bolalarda kamqonlikni asosan ularda kuzatiladigan xotira pasayishi, kamquvvatlik, bosh og'rig'i, immunitet susayishi, aqliy qobiliyat va ishtaha kamayishi kabilarni payqash qiyin emas. Qolaversa, kamqon bolalarda hid va tam sezgilari ham buziladi. Jumladan bolalar noodatiy mahsulotlar: gilvata, kesak, shama, makaron, hom guruch kabilarni ta'tib ko'rgisi keladi. Qurilish bo'yoqlari, aseton, tutun, zax, yangi kitob, metropoliten, benzin hidlarini yoqtiradi. Tashqi o'zgarishlarga ko'ra bola tirnoqlarining mo'rtlashishi, yuzasi qavat-qavat bo'lib qolishi, qiyshayishi va soch siyraklashishi ko'zga tashlanadi.

"To'yib ovqatlanmaslik" kamqonlikning sababi emas. Hatto har kuni eng sara taomlarni yeydigan bolalarda ham kamqonlik uchrashi mumkin. Bolalarda temir yetishmovchiligi sabab yuzaga keladigan kamqonlik, asosan, ayolning homiladorlik va emizikli davrida kamqon bo'lganligi, bolaning muddatidan avval yoki kam vazn bilan tug'ilishi, ko'krak suti bilan boqilmaganligi, surunkali infeksiyalar ta'sirida tez-tez kasallanish hamda organizmda gijja parazitlarning bo'lishi va norasional ovqatlanish tufayli kelib chiqadi. Gemoglobin miqdori pastligi aniqlanganida kerakli muolaja pediater hamda gematolog shifokor ishtirokida tayinlanadi. Bolalarga, asosan ovqatlanish tartibi va sifatini yaxshilash, kundalik rasionda foydali



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

mahsulotlarni ko'paytirish, jismoniy faollik va zarur hollarda gemoglobin miqdorini oshirish uchun yoshiga mos temir preparatlari tavsiya etiladi.

Kamqonlikni davolash va uning oldini olish uchun bola taomnomasini C vitaminiga boy mahsulotlar bilan boyitish kerak. Ushbu darmondori temirning organizmga singishini uch - besh barobarga oshiradi. C vitamini meva va sabzavotlar, ko'katlar tarkibida talaygina. Ovqatlanayotganda qahva yoki choy ichish taomdagi temirning so'rilishiga to'sqinlik qiladi. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarga choy, qahva hamda shakar berish mumkin emas. Shakar, shokolot, novvot va turli shirinliklar gemoglobin miqdorini oshirmaydi. Ular tarkibida temir va vitaminlar mavjud emas. Demakki, bolani kamqonlikdan himoya qila olmaydi. Bolaning sutkasiga temirmoddasiga ehtiyoji sutkasiga 0,5-1,2 mg. ni tashkil qiladi. O'smirlar uchun esa 3-4,5 mg. zarur. Bolaning 1-2yoshida ushbu ehtiyoj ko'proq zarur bo'lgani bois, ayni davrda kamqonlik namoyon bo'lishi mumkin. 3 - 10 yoshlargacha iste'moldagi mahsulotlar sabab temir moddasining miqdori me'yorlashib turadi. Ayol homiladorlik davrida kamqon bo'lmagan bo'lsa, farzandiga temir moddasi zaxirasini bera oladi va u o'smirlikkacha be'malol yetadi. Aksi bo'lganida esa temir zaxirasi ozayadi, mazkur holatda kamqonlikni davolash uchun temir preparatlari darkor [3].

Yashirin yetishmovchilik bosqichida, gemoglobin hali tushmagan bo'lsa, dietani sozlash, vitaminlar, ba'zi oziq-ovqat va vitaminli qo'shimchalarni iste'mol qilishni boshlash kifoya. Tananing o'zi ichakdan temirning Emilishini kuchaytiradi va yetishmovchilik tezda tiklanadi. Kuchli temir tanqisligi anemiyasida maxsus dori-darmonlarni qabul qilinishi kerak. Ular temir ta'minotini tez tiklashga, gemoglobin va eritrotsitlar hosil bo'lishini faollashtirishga imkon beradi.

Temir tanqisligi anemiyasini davolaydigan dorilar tarkibida uch valentli temir yoki ikki valentli temir ionlari bo'lishi mumkin. Ikki valentli temir preparatlari tanaga yaxshiroq singiydi. Uch valentli temir preparatlari kamroq yon ta'sirlarga olib keladi. Bir tomondan, uch valentli temir preparati Emilishi sust bo'ladi, boshqa tomondan, dozani oshirib yuborish ehtimolini istisno qiladi.

Preparatlar shifokor tomonidan belgilangan sxema bo'yicha olinadi. Odatda ovqatlanish paytida qabul qilinadi - bu preparatning Emilishini yaxshilaydi. Har qanday temir qo'shimchasining eng ko'p uchraydigan yon ta'sirlari: ich qotishi, ko'ngil aynish va qorin og'rig'i. Davolash taxminan 3-5 oy davom etishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, kamqonlikdagi asosiy shart-taomnomani sog'lom ovqatlanishga yo'naltirish. Har kuni mahsulotlar imkon qadar turli-tuman bo'lishi



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

kerak. Meva va sabzovotlar (karam, qizil lavlagi, sabzi, olma, uzum), don mahsulotlari (bug'doy, makkajo'xori, tariq), dukkakli o'simliklar (mosh, loviya, no'xat) temir va foliy kislotasiga juda boy. Keltirilgan mahsulotlardan har kuni taomnoma tarkibida iste'mol qilish talab etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Q. Inomov, M. G'aniyeva, "Pediatriya hamshiralik ishi", Toshkent - 2007, 186 - bet.
2. D. Sulaymanova, "Hamshira" jurnali, N 3, 2019 - yil, 23 - bet.
3. T. A. Daminov, B.T. Xalmatova, "Bolalar kasalliklari", Toshkent - 2012, 257 - bet
4. Давыдова М.А. Развитие и прогноз деструктивных изменений суставов у детей с ювенильным идиопатическим артритом. //Вопросы практической педиатрии. 2017; 12(3): 46-53.
5. Неудахин Е.В. Хронотерапия в педиатрии - основа повышения эффективности лечения заболеваний у детей. Рос вестник перинатологии и педиатрии 2018; 63:(6): 7-14.

